



O'RTA ASR MUSULMON SHARQI KIMYOSI VA TIBBIYOTIGA OID MANBALAR HAMDA ULARNING TAHLILI

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchisi

tel: +998901503112,

e-mail: abdurahimovjavlonbek11@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8409110>

ARTICLE INFO

Received: 24th September 2023

Accepted: 29th September 2023

Online: 30th September 2023

KEY WORDS

Leyden, kimyo, tibbiyot, Jobir ibn Hayyon, Ibn al-Qiftiy, Ibn an-Nadim, Al-Xotib al-Bag'dodiy, Ibn al-Usaybi'a, Fixrist.

ABSTRACT

Ushbu maqola O'rta asrlarda musulmon Sharqi kimyosi va tibbiyotiga oid va hozirda mana shu sohalarga bag'ishlangan eng muhim deb hisoblanayotgan ayrim manbalar tadqiq qilingan. Xususan, Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist al-'ulum" ("Ilmlar bibliografiyasi oid kitobi") asari, Al-Xotib al-Bag'dodiy qalamiga mansub "Ta'rix al-Bag'dod" ("Bag'dod tarixi") asari, Ibn al-Qiftiyning "Ixbor al-'ulamo' bi axbor al-hukamo" ("Hakimlar xususidagi xabarlar bilan olimlarni tanishtirish kitobi") asari, Ibn al-Usaybi'aning "Uyun al-anbo' fi tabaqot al-atibbo" ("Tabiblarning toifalariga oid asosiy xabarlar") nomli asari.

Kirish. O'rta asrlarda musulmon Sharqida kimyo va tibbiyot sohalarining rivoji hamda ayni yo'nalishda ijod qilgan allomalarning ilmiy faoliyati va merosiga oid masalalarni yoritishda X–XIII asrlarda yaratilgan bio-bibliografik manbalar muhim ahamiyatga egadir. Bu borada, Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist al-'ulum", al-Xotib al-Bag'dodiyning "Ta'rix al-Bag'dod", Ibn al-Qiftiyning "Ixbor al-'ulamo' bi axbor al-hukamo", Ibn al-Usaybi'aning "Uyun al-anbo' fi tabaqot al-atibbo" nomli asarlari sohadagi eng ishonchli manbalar hisoblanadi.

Ibn an-Nadimning "Kitob al-Fihrist al-'ulum" ("Ilmlar bibliografiyasi oid kitobi") ilk bor nemischa izohlar bilan 1872-yilda Leypsigda professor G.Flugel [10. 725] tomonidan nashr qilingan. Ayni asarning ikki qismidan iborat ingliz tilidagi tarjimasi 1970-yilda J.Boyard tomonidan Nyu-Yorkda [12. 1137] e'lon qilingan. Muallifning hayoti va faoliyatini bugungi kunga qadar J.Fyuk [7. 259-389] maxsus tadqiq etgan.

Al-Xotib al-Bag'dodiy qalamiga mansub "Ta'rix al-Bag'dod" ("Bag'dod tarixi") nomli asarning asl arabcha nusxasi va uning nemischa tarjimasi 1901-yilda J.Braun [4. 897] tomonidan nashr qilingan. Kitob 1985-yilda ingliz tiliga ham tarjima qilingan bo'lib, u Londonda [3. 956] chop etilgan.

Ibn al-Qiftiyning "Ixbor al-'ulamo' bi axbor al-hukamo" ("Hakimlar xususidagi xabarlar bilan olimlarni tanishtirish kitobi")ni asl arabcha nusxasi ilk bor 1903-yilda J.Lippert [5. 356] tomonidan e'lon qilingan bo'lib, u mashhur islomshunos A.Muyuller tarafidan nashrga tayyorlangan edi. Mazkur nashr fan tarixida muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan



holda, unda ayrim chalkashliklarga ham yo'l qo'yilganligini qayd etish zarur. Ayni jihatlar, asarning ingliz tilidagi qo'shimcha izohlari bilan chop qilingan 2005-yildagi nashrida bartaraf etilgan. Ushbu nashr professor Ibrihim Sams-ad-Din tomonidan Bayrutda [6. 326] e'lon qilindi.

Ibn al-Usaybi'aning "Uyun al-anbo' fi tabaqot al-atibbo" ("Tabiblarning toifalariga oid asosiy xabarlar") nomli asarining nemischa tarjimasini ilk bor yuqorida ismi tilga olingan A.Muyuller tomonidan 1885-yilda Leydenda [13. 1059] e'lon qilingan edi. 2020-yilda mazkur asar E.Savaj-Smit, S.Sueyn, G.J. van Gelderlarning umumiy muharrirligi ostida Leydenda mashhur Brill nashriyoti [8. 2510] tomonidan ingliz tilida chop qilindi. Handbook of Oriental studies (Sharqshunoslik qo'llanmasida) turkumida e'lon qilingan ayni nashr asarning eng to'liq nusxasi hisoblanadi.

Quyida, sanab o'tilgan manbalarning o'rta asrlarda musulmon Sharqida kimyo va tibbiyot sohalarining rivoji hamda ayni yo'nalishda ijod qilgan allomalarning ilmiy faoliyati va merosiga oid masalalarni yoritishdagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilindi.

Asosiy qism. "Kitob al-Fihrist al-'ulum" ("Ilmlar bibliografiyasi oid kitob") – to'liq ismi Abu al-Faraj Muhammad ibn Is'hoq al-Nadim ibn Abi Ya'qub Is'hoq al-Varroq bo'lgan, taxminan 932–995-yillarda yashagan bag'dodlik tarixchining asari. Olim ismidagi al-Varroq so'zi uni kutub savdosi bilan shug'ullanganligidan, ya'ni kitobfurush bo'lganligidan dalolat beradi. An-Nadim esa uni Bag'dod shahri hokimining maslahatchisi, ya'ni nadimi bo'lganligini anglatadi. Olim to'g'risidagi ma'lumotlar uning shaxsiy asari orqali yetib kelgan. Keltirilishicha, olti yoshidan boshlab u madrasada o'qigan va islomshunoslik, tarix, geografiya, tabiiy ilmlar, grammatika, ritorika va qur'onshunoslik bo'yicha har tomonlama ta'lim olgan [10. 4-5]. Unga ta'lim bergan olimlar qatoriga Ibrohim al-Abyariy, Al-Hasan ibn Savvar, Yunus al-Qassob, Abu al-Hasan Muhammad ibn Yusuf al-Naqitlarni kiritish mumkin. Ta'lim bilan bir vaqtda u otasining kasbi – kitob savdosi shug'ullangan. Tarixiy adabiyotlarda Ibn an-Nadim nomi bilan tanilgan.

"Kitob al-Fixrist al-'ulum" 998-yilda yozib tugallangan. Asar fanda "Kitob al-Fihrist" ("Kitoblar katalogi") nomi bilan ham mashhurdir. U o'ninchi asr Islom ilmlari va adabiyoti tarixiga oid yirik to'plami hisoblanadi. Unda 10 mingga yaqin kitob va 2000 muallif haqida so'z boradi.

"Fixrist" turli davrlarda ijod qilgan mualliflar haqida adabiy tanqid bilan birga ma'lumot beradi. Mazkur asar dinlar, urf-odatlar, fanlar, o'rta asrlar islom tarixining noaniq qirralari, Fors, Bobil va Vizantiyadan kelgan xurofot, sehr, she'r, satira va musiqaga oid kitobdir. An-Nadim turli to'plam va kutubxonalardan o'z davrining boy madaniyatini erkin saralab, kataloglashtirgan. Tartib birinchi navbatda xronologik bo'lib, asarlar to'rtta ichki tartib bo'yicha sanab o'tilgan: janr; orfann (bob); maqala (nutq); Fixrist (butun kitob). Uning asosiy tizimining ushbu to'rtta xronologik tamoyili tadqiqotchilarga asarni sharhlash, tushunib bo'lmaydigan ma'lumotlarni olish hamda Ibn an-Nadimning kompozitsiya, mafkura va tarixiy tahlil uslubini tushunishga yordam beradi [10. 6].

Ibn an-Nadim ko'pincha kitobning o'lchami va sahifalar sonini eslatib o'tadi, bu esa nusxachilarning qisqaroq versiyalarni o'tkazib, xaridorlarni aldashini oldini oladi. U mashhur xattotlar nusxalariga va kutubxonalarga ishora qiladi hamda kitob savdosi haqida gapiradi. So'z boshida u 14 xalqning alifbosi va ularning yozilish uslubi, shuningdek, qalam, qog'oz va



uning turli xil turlari haqida gapiradi. Uning nutqlarida falsafaning kelib chiqishi, Aflotun va Aristotel hayoti, "Ming bir kecha"ning kelib chiqishi, piramidalar, sehr, jodugarlik, xurofot va alkimyo haqidagi fikrlari kabi bo'limlar mavjud.

Olimni tibbiyot, dorishunoslik, matematika va astronomiya sohalarida ham ijod qilgani, Xurosonning Tus shahridan ekanligi ta'kidlanib, olim uch mingdan ortiq asar muallifi sifatida e'tirof etilgan. Bu holat ayrim zamonaviy tadqiqotlarda ham uchraydi. Ammo, aksar soha mutaxassislarining fikricha, ko'rsatilgan asarlarning barchasi ham alloma qalamiga mansub emas. Chunki, Jobir ibn Hayyonning ayrim asarlarida ilgari surilgan nazariyalar IX asr oxiri X asr boshlarida hali mavjud bo'lmagan. Shuningdek, asarlarda alloma tomonidan qo'llanilgan ayrim atamalar aslida fanga undan so'ng yashagan olimlar (misol uchun, ulardan ayrimlarini Hunayn ibn Is'hoq (809–877) amaliyotga joriy qilingan) tomonidan kiritilgan. Alloma ijodini maxsus tadqiq etgan Paul Kraus (1904–1944) o'z izlanishlarining natijalariga asoslanib, fanda Jobir ibn Hayyon qalamiga mansub deb ko'rsatilgan asarlarning ayrimlari aslida uning zamondoshlari yoki undan so'ng yashab-o'tgan olimlarga tegishlidir, degan xulosa keladi. Shunga qaramay, Jobirning afsonaviy emas, balki real shaxs ekani ilmiy adabiyotlarda o'z isbotini topdi. Yirik olimlardan biri M.Bertelo (1827–1907)ning "Jobir ibn Hayyonning kimyodagi xizmatlari Arastuning mantiq ilmidagi xizmatlari singaridir" deb bergan bahosi allomani "kimyo fanining otasi" sifatida e'tirof etilishi bejiz emasligini anglatadi. An-Nadim olimning mashhur asarlari qatoriga quyidagilarni kiritadi: "az-Zij al-latif" ("Nafis zij"), "Fi'amal al-asturlab" ("Asturlabda amal tutish"), "Kitib al-maraya" ("Ko'zgu kitobi"), "Kitib as-sumum va raf madarrixo" ("Zahar va ziddi zahar kitobi"), "Kitib ar-rahma" ("Shafqat kitobi"), "Kitib ixraj mo fi-l-quvva ilo-l-fi'l" ("Yashirin imkoniyatni haqiqatga aylantirish kitobi") [12. 789].

"Ta'rih Bag'dod" ("Bag'dod tarixi") – asl ismi Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Tabix ibn Ahmad ibn Mahdiy al-Shafiy bo'lgan, 1002–1072-yillarda yashagan tarixchining asari. Fan tarixida asosan al-Xotib al-Bag'dodiy yoki "Bog'dodlik ma'ruzachi" nomi bilan mashhurdir.

Al-Xotib al-Bag'dodiy 1002-yil 10-mayda Bag'dodning janubidagi Honikiya qishlog'ida tug'ilgan. U voizning o'g'li bo'lib, yoshligidan otasi va boshqa shayxlar huzurida o'qigan. Vaqt o'tishi bilan u boshqa fanlarni ham o'rganadi, lekin uning asosiy qiziqishi hadis ilmi edi. 20 yoshida otasi vafot etgach, u hadis izlash uchun Basraga boradi. 1024-yilda Nishopurga ikkinchi safarga o'tlanadi va Ray, Amol va Isfahonda hadis to'playdi. Uning qancha vaqt sayohat qilgani noma'lum, lekin o'zining hisoblashlarida u 1028-yilda Bag'dodga qaytadi. Biografik olimlardan biri al-Zahabiyning aytishicha, olimga zamondosh bo'lgan o'qituvchilar va an'analar targ'ibotchilari odatda to'plagan narsalarni ma'ruza yoki va'zlarida ishlatishdan oldin al-Bag'dodiyga tekshirtirishgan [2. 325].

Olimning eng mashhur asari "Ta'rih madinat as-Salom" yoki "Ta'rih Bag'dod" nomli asari bo'lib, u 23 jildidan iboratdir. 1068–1071-yilda yozib tugallangan asar "Bayt al-hikma"da ijod qilgan olim va tarjimonlar tog'risida qisqacha, mazkur ilmiy markaz faoliyatiga oid esa batafsil ma'lumotlar keltirilgan [1. 33-34].

Asarda asosan tibga oid muhim asarlar sanab o'tilgan. Bu borada, Abu Zakariya Yuhanna ibn Mosavayh (777–857)ning "Ko'z kasalliklari", "Tibbiy ajoyibotlar", "Arpaning suvi", "Taomlar va sabzovotlarning xossalari", "Ko'z va uning tarkibini bilish" kabi 20 dan ortiq asarlari; Hunayn ibn Is'hoq (809–877)ning tabobat, dorishunoslik va boshqa fanlarga oid 100



dan ortiq asarlari, shu jumladan ularning eng mashhurlari sanalgan “Ko‘z haqida o‘n maqola” va “Tibbiy masalalar” kabi asarlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

“Ixbor al-‘ulamo’ bi axbor al-hukamo” (“Hakimlar xususidagi xabarlar bilan olimlarni tanishtirish kitobi”) – to‘liq ismi Jamoluddin Abu-l-Hasan Ali ibn Yusuf Ibrohim ibn Abdulvohid ash-Shayboniy al-Qiftiy bo‘lgan, 1172-yilda Misrdagi Qift nomli shaharda tavallud topib, 1248-yilda Halabda vafot etgan tarixchining mashhur asari. Fan tarixida Ibn al-Qiftiy nomi bilan mashhur bo‘lgan arab tarixchisi, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan adibi va davlat arbobidir. Qohirada fiqh, huquq, adabiyot, ilmi nujum, handasa, tabobat, mantiq va tarix bo‘yicha ta’lim olgan. 1187-yilda otasi bilan Quddusga ko‘chib kelgan. Bu yerda Qohirada olgan bilimlarini yanada takomillashtirib, kelgusida yozadigan asarlari uchun manbalar to‘plagan. Taxminan 1201-yilda Quddusda siyosiy vaziyat yomonlashgani boisidan otasi bilan Harron (Mesopotamiyada)ga ko‘chib o‘tgan. 1213-yilda Halab hokimi uni moliya ishlari devoni boshlig‘i etib tayinlab, unga “Al-Qoziy al-akram” (“Eng saxovatpesha qozi”) faxriy unvonini in’om etgan. Bu mansabda u davlat manfaatlari yo‘lida xizmat qilish bilan birga yirik olimlarga ham homiylik qilgan, chunonchi mo‘g‘ullar bosqini tufayli O‘rta Osiyodan qochib kelgan Yoqut Hamaviyga boshpana berib, moddiy yordam ko‘rsatgan. 1236-yil Halab hokimi tomonidan vazir etib tayinlagan Ibn al-Qiftiy umrining oxiriga qadar shu mansabda ishlagan [11. 412]. Hijriy 646 (milodiy 1248)-yili ramazon oyida Halabda vafot etgan tarixchi shahar chekkasidagi “Ibrohim maskani” (maqomi Ibrohim) yonida dafn etilgan.

Olimning bizgacha yetib kelganlari orasida eng muhimi – “Ixbor al-‘ulamo’ bi axbor al-hukamo” (“Hakimlar xususidagi xabarlar bilan olimlarni tanishtirish kitobi”)dir. Bu asar ko‘proq “Ta’rix al-hukamo” (“Hakimlar tarixi”) nomi bilan mashhur. Unda qadim zamonlardan to muallif davriga qadar yashab o‘tgan 414 olimning tarjimai holi berilgan bo‘lib, ularning talaygina qismini Huroson va Movarounnahr olimlari tashkil qilgan. Mazkur asar 1903-yilda Leypsigda, 1908-yilda esa Qohirada nashr etilgan.

Asarda Jobir ibn Hayyon faoliyatiga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, alloma kimyoviy ta’limotining asosini metallarning transmutatsiyasi, ya’ni bir metallardan ikkinchi metalni hosil qilish masalasi tashkil etishi ko‘rsatilgan.

Olim oddiy metallar, jumladan, mis tarkibiga kimyoviy yo‘l bilan ta’sir o‘tkazib, oltin va kumush olish maqsadida ko‘plab tajribalar o‘tkazgan. U metallar tarkibidagi moddalarni filtirlash orqal, ularni o‘zgartirish mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha oltin va kumushga oson aylanishi mumkin bo‘lgan metallar turkumiga mis, simob, qo‘rg‘oshin va temir kirgan.

Metallarni hosil bo‘lishi borasida olim Arastu ta’limotini ma’qullaydi. Bu ta’limotga ko‘ra, Quyosh ta’sirida suvning isishidan bug‘ va yer ositida tuproqdan tutunning paydo bo‘lishi metall va minerallarning shakllanishiga olib keladi.

Kimyodagi sulfit kislota (olim uni kuporos moyi deb atagan), nitrat kislota (olim uni olov suvi deb atagan), xlorid kislota (olim uni tuzning ruhi deb atagan)larning kashf etilishi bevosita Jobir ibn Hayyon nomi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, fandagi metallarning simob va oltingugurtdan paydo bo‘lishi nazariyasi ham mazkur olimga tegishli. Bulardan tashqari, ishqor, natriy karbonat, kaliy karbonat ham olim tomonidan kashf etilgan.

Asarda Jobir qalamiga mansub kimyoga oid asosiy asarlar quyidagicha tasniflangan: “Toshlar kitobi”, “Ko‘zgu kitobi”, “Zahar va ziddi zahar kitobi”, “Shafqat kitobi”, “Yashirin



imkoniyatni haqiqatga aylantirish kitobi”, “Kimyo sirlari”, “Kimyo usullari”, “Aflotun kitoblariga tuzatishlar”, “Achitqilar”, “Hossalar”.

“Uyun al-anbo’ fi tabaqot al-atibbo” (“Tabiblarning toifalariga oid asosiy xabarlar”) – to’liq ismi Ibn Abi Usaybi’a Mu’affaq al-Din Abu al-‘Abbos Ahmad ibn al-Qosim ibn Halifa al-Hazrajiy (1203–1270) bo’lgan damashqlik tabib va tarixchi olim asari.

U o’zining tug’ilib o’sgan shahrida tibbiyotni, so’ngra Qohiradagi Nosiriy kasalxonasida oftalmologiyani o’rgangan bo’lib, bu yerda tabib va botanik Ibn al-Baytordan maxsus saboq olgan. 1233-yili Salohiddinning Qohirada yangi tashkil etilgan kasalxonasi faoliyat yuritgan. 1234-yilda Damashqdagi an-Nuriy kasalxonasiga boradi, 1236-yilda esa shahar amiri Nizzomiddin Aydamur ibn Abdullohning bosh shifokori etib tayinlangan. Olim 1270-yilning yanvar oyida Damashq yaqinida vafot etgan [14. 79].

Uning “Uyun al-anbo’ fi tabaqot al-atibbo” (“Tabiblarning toifalariga oid asosiy xabarlar”) nomli katta to’plamining ikkita qo’lyozmasi mavjud. Birinchisi 1241-yilda tuzilgan, ikkinchi nashri esa ba’zi qo’shimchalar bilan 1884-yilda A.Myuller tomonidan tahrir qilingan [9. 924].

Mazkur kitob musulmon Sharqi tibbiyotining eng to’liq tarixini mujassam qilgan asar hisoblanadi. Unda Galenning yahudiylar va nasroniylar haqidagi ba’zi so’zlaridan iqtibos keltirgan. Hatto Galenning Rim kutubxonalari tarixi uchun eng katta ahamiyatga ega bo’lgan va so’nggi bir necha yil ichida qayta kashf etilgan “G’am haqida” asari eslatib o’tiladi. Unda Hunayn ibn Ishoqning ko’plab materiallari, jumladan, uning baxtsizliklari haqidagi shaxsiy hikoyasi va yunon ilm-fanini arab tiliga tarjima qilish harakatida faol ishtirok etgan tarjimonlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kitob qadimgi Yunoniston, Suriya, Hindiston va Rim shifokorlarining qisqacha tarixi bilan boshlanadi, ammo kitobning 700 sahifasida asosiy e’tibor o’rta asr Islom tabiblariga qaratilgan. Asarning birinchi nusxasi 1245–1246-yillarda paydo bo’lgan va Ayyubiy tabibi, vazir Amin al-Davlahga bag’ishlangan. Asarning ikkinchi kengaytirilgan nusxasi muallif hayotining so’nggi yillarida yaratilgan. Saqlanib qolgan qo’lyozmalardan ko’rinib turibdiki, asar ikki xil nusxada tarqalgan.

Asar qismlarining tarjimalari turli yillarda yaratilgan. Masalan, Londondagi Qirollik Tibbiyot kollejida Galen bo’limining nashr etilmagan inglizcha tarjimalari ham mavjud. 2011-yilda Amerika Qo’shma Shtatlari Milliy tibbiyot kutubxonasi tomonidan asarning to’liq tarjimasi e’lon qilingan. Ibn Abi Usaybi’aning kitobi 5 jildddan iborat bo’lib, jami 4513 betni tashkil etadi, undan muallifning turli tasodifiy she’rlari ham o’rin olgan. Bundan tashqari, keyinchalik Quddusda M.Plessner tomonidan 62 varaqli eslatmalar qo’shilgan. O’zida 380 nafar tabiblar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni jamlagan asarda markaziy osiyolik olimlar haqida ko’plab qaydlar uchraydi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar, fan tarixini o’rganishda o’rta asrlarda yaratilgan bio-bibliografik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo’lib, ularda avvalgi davrlarda yashab o’tgan olimlarning tarjimai holi va asarlarining mufassal ro’yxati keltiriladi. Ayni jihat turli fan sohalarida ijod qilgan alloma va mutafakkirlar to’g’risidagi ma’lumotlar bilan qulay tarzda tanishish imkonini beradi.



References:

1. Абдуҳалимов Б. А. «Байт ал-ҳикма» ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 234 б.
2. Матвиевская Г. П., Розенфельд Б. А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды. В 3-х т. – Москва: Наука, 1983. – Т. 2. – 790 с.
3. Al-Baghdādī. The History of Baghdād. – London: Oxford Press, 1985. – 956 p.
4. Al-Khaṭīb al-Baghdādī. Ta'rīkh Baghdād wa Dha'ilih wa-l-Mustafād (Die Geschichte von Baghdād). – Leiden: E.J.Brill, 1901. – 897 s.
5. Al-Qiftī Jamāl al-Dīn. Ta'rīkh al-ḥukamā'. / auf Grund der Arbeiten A.Müllers. / Ed. J.Lippert. – Leipzig: Theodor Weicher, 1903. – 356 s.
6. Al-Qifti. The Biographies and the Books of the Great Philosophers. / Ed. Ibrahim Shams-ad-Din. – Beirut: Dar al-Kotob Al-Ilmiyah, 2005. – 326 p.
7. Fück J.W. Ibn al-Nadīm // The Encyclopaedia of Islam. New Edition. – Vol. III. – Leiden: E.J.Brill, 1971. – 1342 p.
8. Ibn Abī Uṣaybi'ah. 'Uyūn al-anbā' fī ṭabaqāt al-aṭibbā'. The best accounts of the classes of physicians. – 5 vol. / Ed. and trans. by E.Savage-Smith, S.Swain, G.J. van Gelder. / in Handbook of Oriental studies. – Leiden: Brill, 2020. – 4513 p.
9. Ibn Abi Useibia. Kitāb 'ayoun al inbā fī tabaqāt al atibā'. / Herausgegeben von A.Müller. – Königsberg: Selbstverlag, 1884. – 924 s.
10. Ibn an-Nadīm. Kitāb al-Fihrist. / vorbereiten der Veröffentlichung G.Flügel. – Zwei bände. – Leipzig: Vergal von F.C.W.Vogel, 1872. – 1342 s.
11. Sezgin F. Geschichte des arabischen Schrifttums. – Bd. I. Qur'ānwissenschaften, ḥadīth, Geschichte, Fiqh, Dogmatik, Mystik. – Leiden: E. J. Brill, 1996. – 945 s.
12. The Fihrist of al-Nadīm. / Ed. and trans. by B.Dodge. – New York: Columbia University Press, 1970. – Vol. II. – 1342 p.
13. Ueber Ibn-Abî-Usseibi'a und seine Geschichte der Aerzte. / Ed. Aug. Müller. – Leiden: E.J.Brill, 1885. – 1059 s.
14. Ullmann M. Islamic Medicine. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 630 p.
15. Raxmanova O.R. The army of the Abbasid Caliphate in the Samarra period, as the basis of the military power of the state. // Academia Globe Inderscience Research. 169-173 p.
16. Rahmanova O.R. The history of the Abbasid caliphas in the interpretation of russian orientalissts // American Journal of Social and Humanitarian Research ISSN :2690-9626 (Vol. 3 No. 7 .(2022); 168-175 p.
17. Рахманова, О. (2023). НЕКОТОРЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПОСЛЕДСТВИЙ ПРАВЛЕНИЕ АЛЬ-МУТАСИМА И АЛЬ- ВАСИКА В САМАРРЕ. Евразийский журнал академических исследований, 3(8), 112–116.
18. Рахманова , О. (2023). УЧАСТИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ ЖИЗНИ АББАСИДСКОГО ХАЛИФАТА. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6 Part 2), 12–15.